

**Dilnavoz Abdurahimova**

**Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi**

**PARALLELIZM HODISASI SEMANTIK-STILISTIK KATEGORIYA  
SIFATIDA**

**Annotatsiya:**

Parallelizm hodisasi til yoki nutq birliklarining takrorlanishi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham tilshunoslikda “parallelizm” va “takror” terminlari bir-biriga o‘xshash tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi va biri ikkinchisining o‘rnida sinonim ravishda qo‘llanadi. Bu terminlar tilshunoslik fanida juda ko‘p uchraydi. Lingvistikaning, deyarli, hamma bo‘limlarida parallelizm hodisasi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolada bu hodisa haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: rus tilshunosligi, stilistik vosita, mikroparallelizm, makroparallelizm, konstruksiya.

**Аннотация:**

Явление параллелизма появляется в связи с повторением языковых или речевых единиц. Поэтому в языкознании термины параллелизм и повтор служат для выражения сходных понятий, и одно синонимично заменяется другим. Эти термины очень распространены в лингвистике. Практически во всех разделах языкознания обсуждается явление параллелизма, в данной статье рассматривается это явление.

Ключевые слова: русское языкознание, стилистический прием, микропараллелизм, макропараллелизм, конструкция.

**Kirish**

Rus tilshunosligida parallelizm hodisasi haqidagi dastlabki fikrlar M.V.Lomonosov asarlarida uchraydi. Keyingi vaqtlarda parallelizm hodisasiga turlicha izohlar beriladi. Ayrim tilshunoslar parallelizmni og‘zaki nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilovchi vosita sifatida baholasalar, ba’zilar parallelizm o‘z vazifasi jihatdan bog‘lovchilarga yaqin deb ta’kidlaydilar, ba’zi olimlar parallelizmlarni stilistik vosita sifatida ta’riflaydilar. Ayrim olimlar parallelizmni leksik, sintaktik, stilistik hodisa, deb talqin etadilar. Parallelizm ba’zi tadqiqotchilar tomonidan faqat ma’lum bir tilgagina xos bo‘lgan hodisadir, deb izohlansa, bir guruh tilshunoslar tomonidan bu hodisa hamma tillarga xos xususiyatdir, deb ta’kidlanadi.

Ba’zi ishlarda “parallelizm” termini bir necha ergash gapli qo‘shma gaplarda bir tipli birgalik ergashish usuliga nisbatan ham qo‘llanadi.

A) mikroparallelizm – sodda gapda uyushgan bo‘laklar orasidagi parallelizm (teng aloqa);

B) makroparallelizm – qo‘shma gapda predikativ birliklar o‘rtasidagi parallelizm.

Bizning fikrimizcha, parallelizm hodisasi faqat grammatik yoki stilistik hodisa sifatida chegaralash uncha to‘g‘ri bo‘lmaydi. Parallelizm hodisasini ma’no yoki mazmun takrori tushunchasi bilan ham semantik, ham grammatik, ham stilistik tomonlardan tahlil qilish, ya’ni unga semantik-grammatik-stilistik kategoriya sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Bu narsa parallelizm hodisasining naqadar keng qamrovga ega ekanligini, parallelizm tushunchasini juda keng ma’noda tushunish lozimligini ko‘rsatadi. Parallelizm bir-biriga o‘xshash hodisalarning shunday bir sistemasidirki, uning har bir ko‘rinishi o‘z ichida ma’lum bir sistemani tashkil etishi mumkin.<sup>1</sup>

Tilshunoslikda parallelizm termini, ko‘pincha, aynan takrorlangan bo‘laklarga nisbatan (masalan anafora, epifora), ba’zan aynan takrorlangan gap

---

<sup>1</sup> А. Мамажонов Қўшма гап стилистикаси. “Фан” нашриёти, 1990 й.

qurilishiga nisbatan qoʻllanadi, yaʼni oʻxshash hodisalar ayrimlarining nomi sifatida ishlatiladi. Bizningcha, parallelizm oʻxshash hodisalar ayrimlarining emas, balki ularning umumiy nomi boʻlib, u katta bir sistemani tashkil etadi. Ana shu sistema doirasiga kiruvchi ayrim elementlarga nisbatan parallelizm terminining qoʻllanilishi natijasida parallelizm hodisalari chalkashtiriladi va oqibatda bu hodisalarning farqlarini ochishda qiyinchilik tugʻiladi. Parallelizm aynan takrorlanuvchi – teng holda qoʻllanuvchi til yoki nutq birliklarining umumiy nomidir. Takror birliklar esa tuzilishi, vazifasi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi hamda parallelizm hodisasining koʻrinishlari hisoblanadi.<sup>2</sup> Biz bu oʻrinda parallelizm hodisasining faqat qoʻshma gap stilistikasi bilan bogʻliq boʻlgan ikki koʻrinishi – mazmuniy va struktur parallelizm haqida fikr yuritamiz.

### **Struktural parallelizm**

Bu hodisa parallelizmning boshqa koʻrinishlaridan alohida farqlanuvchi belgilarga ega. Bu farq, eng avvalo, uning faqat qoʻshma gap tarkibida yuzaga chiqishida koʻrinadi. Struktur parallelizmدا qiyoslanayotgan konstruksiyalar tarkibining bir-biriga toʻliq mos kelishi – parallelligi kuzatiladi:

1      2      3      4      5      6

Hur, ahli zeboligin unutib borar ayol,

1      2      3      4      5      6

Bir guli raʼnoligin unutib borar ayol.

(Enaxon Siddiqova “UNUTIB BORAR AYOL”)

### **Mazmuniy-semantik parallelizm**

Parallelizmning bu koʻrinishida qiyoslanayotgan konstruksiyalarning tarkibiy qismlari emas, balki ularning mazmuni takrorlanadi, bir-biriga yaqin

---

<sup>2</sup> Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. –Т., 1958.

bo‘ladi. Shuning uchun ham mazmuniy parallelizm hodisasi tilshunoslikka oid adabiyotlarda sintaktik sinonimiya deb yuritiladi. Mazmuniy parallelizmning sintaktik sinonimiyadan boshqa ko‘rinishlari ham bor: masalan, sintaktik variantlar yoki dubletlar parallelizm turlariga kiradi. Struktural parallelizm hodisasini o‘rganish qo‘shma gaplarning struktural va semantik qurilishi masalasini hal etish bilan bevosita bog‘liqdir. Yaqin vaqtlarga qadar struktural parallelizm hodisasi tilshunoslikda maxsus tadqiqot obyekti sifatida qaralmagan. Bu hodisa dastavval xalq og‘zaki ijodi poetikasi bilan shug‘ullanuvchi olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilgan. Birmuncha keyinroq rus tili sintaktik-stilistikasiga bag‘ishlangan ayrim darslik va monografiyalarda struktural parallelizm hodisasi haqida fikr aytilib, unga alohida o‘rin berila boshlandi.

O‘zbek tilshunosligida struktural parallelizm qo‘shma gap tarkibida qo‘llanuvchi sintaktik-stilistik vosita sifatida alohida tekshirilmagan. O‘zbek tilining sintaktik qurilishi muammolariga bag‘ishlangan ayrim tadqiqot ishlarida sintaktik parallelizm hodisasi tilga olinib, ayrim umumiy fikrlar beriladi. Struktural parallelizm usuli yordamida hosil qilingan sintaktik konstruksiyalarning “emotsional bo‘yoq xarakteri, jarangdorlik ohangi turlicha bo‘lishi mumkin”.<sup>3</sup> Ulardan lirik, tasviriy, yumoristik funksiyalarda keng foydalaniladi. Struktural parallelizm hodisasi dastavval xalq og‘zaki poetikasiga mansub bo‘lib, keyinchalik yozma nutq ko‘rinishlariga o‘tgan. Struktural parallelizm – qo‘shma gapni tashkil etuvchi predikativ birliklar har biri tarkibidagi gap bo‘laklarining bir xil o‘rinda, aynan takrorlanish usulidir. Struktural parallelizm usuli yordamida tashkil topadigan sintaktik konstruksiyalarning komponentlari o‘zaro parallel joylashadi, o‘ziga xos ritmomelodik strukturani ifoda etadi. Struktural parallelizimli sintaktik konstruksiyalarda ularni tashkil etuvchi komponentlar tarkibidagi barcha konstruktiv elementlar bir xilda takrorlanadi.<sup>4</sup> Struktural parallelizm qo‘shma gap

---

<sup>3</sup>Рабчинская И.А. Синтаксический параллелизм как способ организации сложных конструкций. Автореф.дисс....канд. филол.наук, - Минск, 1976.

<sup>4</sup>Рабчинская И.А. Синтаксический параллелизм как способ организации сложных конструкций. Автореф.дисс....канд. филол.наук, - Минск, 1976.

qismlarining mazmuniy va grammatik birligini ta'min etuvchi sintaktik-stilistik vosita hisoblanadi.

Struktural parallelizm usuli bir tipdagi uyushish hamda sintaktik takror asosida reallashadi.

*Hech kim tortib olmas bo'lsin,*

*Hech kim sotib olmas bo'lsin.*

*(Enaxon Siddiqova "Farishta bor durrasida")*

Ushbu misralarda birinchi va ikkinchi misra bir-biriga paralel ravishda mos tushmoqda. Bu esa mazmuniga ta'sir qilayotgani yo'q. Bu yerda bu parellik ta'kidni kuchaytirayabdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. А. Мамажонов Қўшма гап стилистикаси. "Фан"нашриёти, 1990 й.
2. Абдурахмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари. –Т., 1958.
3. Рабчинская И.А. Синтаксический параллелизм как способ организации сложных конструкций. Автореф. дисс. . . . канд. филол. наук, - Минск, 1976.
4. Enaxon Siddiqova. Sizni dedim. Toshkent ADABIYOT, 2021